

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA ORFOGRAFIK BILIMNI SHAKLLANTIRISHDAGI LINGVISTIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR

Murodullayeva Dilsora

*O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti
Boshlang‘ich ta‘lim va gumanitar fanlar fakulteti
Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi kafedrasida assistenti*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10813582>

Annotatsiya

Ona tili darslarida o‘quvchilarning imloviy savodxonligini oshirish va mustahkamlashda lug‘atlar bilan ishlashni o‘rgatish, tafakkur va fikrlash qobiliyatini o‘stirish, mustaqil fikrga ega bo‘lgan kelajagimiz egalarini tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda o‘rganilayotgan so‘z va so‘z shakllarini to‘g‘ri talaffuz qilish hamda yozish, so‘zni grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantirish, so‘zlarni o‘rinli tanlash va sintaktik-uslubiy jihatdan to‘g‘ri baholay olish, jumla tuzish va nutq ohangini belgilashda adabiy til imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, ushbu maqolada orfografik bilimni shakllantirishdagi lingvistik va psixologik xususiyatlarni yoritamiz.

***Kalit so‘zlar:** orfografiya, orfoepiya, imlo, talaffuz, nutq, lug‘at, so‘z, savodxonlik.*

Kirish: Yangi O‘zbekistonning boshlang‘ich ta‘lim tizimida juda ko‘p o‘zgarishlar amalga oshirildi. Yangiliklarning kiritilishi ta‘lim sifatini xalqaro talablar darajasiga yetkazishdan iborat. Hozirda ta‘lim to‘g‘risida qabul qilinayotgan ko‘plab me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning zamirida ham boshlang‘ich ta‘limga yangicha yondashuvni olib kirish va sifat samaradorlikni oshirish asosiy maqsad qilib belgilangan.

Boshlang‘ich ta‘limning samaradorligini ta‘minlashda o‘qituvchining shaxsiy sifatleri va pedagogik kasb mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi barcha pedagogik-psixologik vositalarni qo‘llagan holda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda yaxlit tarzda o‘quv faoliyatini shakllantira olishi kerakligi bugungi kunda barchaga ayon. Bu o‘quv faoliyati fonetik-grafik, grammatik, orfografik va orfoepik tushunchalar ustida ishlashda shakllansa, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqidagi nuqsonlar yo‘qola boradi.

O‘quvchilar ilk bor maktabga qabul qilinganlaridan boshlab ularning og‘zaki va yozma nutqiga e‘tibor kuchaytiriladi. Dastlabki sinflardan boshlab o‘quvchilarning husnixat malakalari ustida ishlash, ularga yozuv qoidalarini o‘rgatib borish, alifbodagi har bir harfni yozuvda to‘g‘ri va aniq ifodalab berishga o‘rgatish boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan juda katta mas‘uliyatni talab qiladi.

Asosiy qism:

Ona tili darslarida o‘quvchilarga berilgan materiallarni (mavzularni) o‘rgatishda o‘qituvchining roli juda muhimdir.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf ona tili darslari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirish bilan bir qatorda, ularning aqliy favoliyatlarini rivojlantirib borishga ham e'tibor beriladi. O'quvchilarni o'qish va yozish malakalarini egallashlari orqali barcha o'quv fanlarini o'rganish – o'zlashtirishga yo'l ochiladi.

Shuning uchun ham ona tili boshlang'ich sinflarda asosiy o'quv predmeti hisoblanadi. Metodika o'quvchilarning yosh xususiyatlari va qobiliyatlariga asoslanib, ularning har qaysi sinfda o'zlashtiradigan bilimlar hajmini belgilaydi. Shuningdek, o'qituvchi bilimlarini o'zlashtirishda uchragan qiyinchiliklarni aniqlab, uni bartaraf etish yo'llarini qo'llashi lozim.

Metodika – hayot turmush tarzini o'zgarishlari va fan–texnika taraqqiyoti natijasida bolalarni aqliy o'sish darajasi va psixologiyasni o'zgarib borishida o'z ifodasini topishi kerak.

Shuning uchun ham o'qituvchi har bir davr va zamon talablariga javob bera olishi zarur.

Mustaqillik sharofati bilan ta'lim tizimini tubdan isloh etilishi, ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya berishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishni taqozo etadi.

Ona tili o'qitishning maqsadi, mazmuni va tarkibiy qismlari hamda milliy o'quv dasturi ona tili darslarini o'tishda zamon talablaridan kelib chiqqan holda umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilariga quyidagi yozma nutq malakasi talablari qo'yildi:

– o'z fikr va hissiyotlarini imlo, punktuatsion, uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda to'g'ri, izchil, ifodalash, shuningdek, ma'lumotni belgilangan hajm talabiga ko'ra yoza olish;

– turli maqsad va har xil o'quvchiga mo'ljallangan matnlarni yoza olish, xususan, ma'lum narsa-hodisa haqida yozma ma'lumot yetkaza olish;

– materiallarni tartiblash va umumlashtirish, fikr va dalillarni tafsilotlar bilan asoslab yoza olish;

– yozma nutqining ta'sirchanligini oshirish maqsadida ifoda vositalarni o'rinli qo'llay olish;

– matnning izchilligi ta'minlash va saviyasini oshirish uchun so'z va grammatik vositalarni to'g'ri qo'llay olish;

– imlo, uslub va punktuatsion me'yorlarga rioya qilish.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan talablarni darslarda metodik jihatdan to'g'ri qo'llay olish ona tili darslarini samarali bo'lishida yordam beradi.

Bundan tashqari milliy o'quv dasturida o'quvchilar bilimiga qo'yilgan kompetensiyalarni bajarish uchun o'qituvchining o'zi shu talablarni bajara olmog'i lozim.

Ya'ni o'qituvchi ona tilidan tilshunoslik bo'limiga oid fonetika, grammatika, leksikologiya hamda imlo qoidalarini yaxshi bilmog'i lozim.

Darsni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish har bir o'qituvchining bosh maqsadi bo'lmog'i lozim.

Ona tili ta'lim sohasi barcha fanlar ichida yetakchi vazifadagi fan hisoblanadi. Ona tili ta'lim sohasi mustaqillik sharoiti bilan har taraflama o'ziga xos yo'nalishlarga ega bo'lgan bir paytda o'zining tizimi, maqsadi, vazifasi oldiga yangi talablarni qo'ydi.

Ona tili ta'limi bolalarni fikrlash qobiliyatlarini kengaytirishga, o'zgaralar fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishga, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqatda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani sifatida emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qarashi lozim.

Ona tili ta'limi o'quvchilarning uch yo'nalishda bilim olishini maqsad qilib oladi. O'qish texnikasi, o'zgaralar fikrini va matn mazmunini anglash hamda fikrini yozma shaklda bayon qilish.

Ona tili fanining ahamiyati beqiyosdir. Bu fan o'quvchilarga faqatgina ta'lim berish emas, balki tarbiya berishni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bu ikkala jarayon ham ajralmagan holda olib borilmoqda.

Mana shu fikrlardan kelib chiqqan holda, biz murabbiylar mazkur dastur orqali bolalarni har taraflama yetuk, komil inson qilib tarbiyalashni sharaflı burchimiz deb bilmog'imiz lozim.

Ayniqsa biz milliy g'ururni, milliy iftixorni bolalar ongiga singdirish, Vatan, millat, tilimiz, urf-odatlarimizga mehr-muhabbat hissini uyg'otishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ymog'imiz zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga orfografik hushyorlikni o'rgatish savodxonlikning poydevori hisoblanadi. Boshlang'ich sinfda o'qitishdan maqsad o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini ravon qilish hamda ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash bilan bir qatorda ularni go'zallikka intiluvchi, uni yurakdan his qila oladigan, go'zallikni yaratishga intiladigan kishilar qilib voyaga yetkazishni nazarda tutadi.

Husnixatga o'rgatishdan asosiy maqsad kichik yoshdagi o'quvchilarga yozishdek murakkab jarayonni o'rgatish orqali ularni orfografik hushyorlikka o'rgatishdan iboratdir. O'quv fani sifatida husnixatning oldiga qator vazifalar qo'yiladi. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib, o'quvchilarni aqliy rivojlantirishga, ularning atrof-muhit haqidagi bilimlarini bildirishga, axloqiy va estetik didlarini tarbiyalashga, ongli o'qish va yozish malakalarini hamda yozuv daftari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Bu vazifalarning barchasi o'zaro bog'liq holda amalga oshiriladi. Ularni ham zaruriy yozuv malakalarini egallashga darslikda berilgan o'quvchilar saviyasiga mos nazariy va amaliy materialni uyg'unlashtirib o'zlashtirish ustida ishlashni maqsadga muvofiq uyushtirish, shuningdek, matnlar sifatini, topshiriqlar xususiyatini va bolalar aqliy faoliyatining o'ziga xos tomonlarini belgilaydigan qator uslubiy shart-sharoitlarga bog'liq. Bola kamolotining shakllanishi ko'p jihatdan orfografik hushyorlikka bog'liq.

Chiroyli yozish orqali bolalar boshqa fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Inson hayotida yozuv muhim o'rin tutadi, chunki u har kuni turli-tuman qog'ozlar va hujjatlardan foydalanadi. Bularning hammasi chiroyli va bexato yozishni taqazo etadi. Ammo qisqa muddat ichida o'quvchilarda chiroyli, tez va bexato yozish malakalarini o'stirish mumkin emas, buning uchun bir necha yillik mehnat talab etiladi. Orfografik hushyorlikka o'rgatish uchun bolalarning maktabga qadam qo'ygan kunlaridan boshlab, izchil mashqlar olib borish zarur.

Husnixat malakasini shakllantirish uchun birinchi navbatda harflarning shaklini to'g'ri tasavvur etishga, bir xil qiyaalikda yozishga, so'zlarda harflarni to'g'ri bog'lanishga,

soʻzlarni qatorlar boʻylab toʻgʻri joylashtirishga oʻrgatiladi. Daftar chiziqlari birin-ketin almashuvi davomida harflarning qiyaligini va ular orasidagi masofani toʻgʻri saqlash, kichik va bosh harflarning nisbatini toʻgʻri chamalab yozishga oʻrgatish juda muhimdir. Husnixat darslarida maʼlum guruhga oid harflarni yozishga oʻrgatish oʻquvchilarda uchraydigan ayrim tipik xatolarning oldini olish va tuzatish ustida ham ish olib borish lozim. Yozuv tezligi oshishi bilan ayrim bir-biriga oʻxshash harflarning shaklini buzib yozish hollari uchraganda esa ularni qayta mashq qildirish kerak. Orfografik hushyorlikka oʻrgatishda daftardan toʻgʻri foydalanishga alohida eʼtibor berish zarur. Ikki chiziqli daftardan bir chiziqli daftarga oʻtganda, oʻquvchilar oldiga qator vazifalar qoʻyiladi. Orfografik hushyorlikka oʻrgatish umumiy didaktik qoidalar bilan birga yozuv malakasini shakllantiruvchi oʻziga xos qoidalarni ham oʻz ichiga oladi.

Umumiy didaktik qoidalar takroriylik, koʻrgazmalilik, yosh va oʻziga xos xususiyatlarni hisobga olish, tushunarlik, onglilik, husnixat metodikasining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Yozuvga – husnixatga oʻrgatishning vazifasi harfni, soʻz, gap va matnni toʻgʻri va chiroyli yozishni takomillashtirishdir. Yozuvni oʻrganish jarayonida oʻquvchi tovushning belgisi boʻlgan harfni soʻz va gapni kitobdan daftarga va xattaxtdan toʻgʻri va husnixat qoidalariga rioya qilib koʻchirib yozish, yozganlarini tekshira olish va yoʻl qoʻygan kamchilik va xatolarni oʻqituvchi rahbarligida yoki oʻzi tuzata olishi kerak.

Har bir oʻquvchi u yoki bu harfni tushunib yozishni harflarning bir-biriga bogʻlanishini, kichik va bosh harfning bir-biriga nisbatini, balandligini, qiyaligini, ruchkani ushlab va toʻgʻri oʻtirish qoidalarini yaxshi bilishi lozim.

Orfografik hushyorlikni oʻrganish olingan davrida bilim va malakalar oʻquvchilar uchun doimiy qoida boʻlib qolishi zarur. Orfografik hushyorlik malakalarini oʻstirishda eng birinchi qoida bu ozodalik talablari va yozuvning qiyaligini toʻgʻri saqlashga soʻngra harf va harf elementlari orasidagi masofani chamalab yozish malakalari singdirib boriladi. Bu qoidalar keyinchalik takomillashtiriladi. Har bir yozuv mashqi aniq maqsad asosida oson, tushunarli olib borilishi kerak. Buning uchun orfografik hushyorlikka oʻrgatishning turli usullaridan foydalanish lozim. Bolalarning yozuv malakalarini hosil qilishda ularning yosh oʻziga xos xususiyatlari: barmoq va qoʻl muskullarining harakat tezligi, markaziy nerv sistemasi tomonidan nerv muskullarini boshqarilishi hisobga olinishi lozim. Orfografik hushyorlik darslarida harflarning shakli ustida mashq oʻtkazganda oddiydan murakkabga tomon boriladi. Chunki alifbodagi barcha harflar yozilish shakliga koʻra guruhlarga ajratiladi. Birinchi guruhda yozilishi shakli oson, keyingi guruhlarda yozilish shakli murakkab boʻlgan harflar kiritiladi. Bunday usulda darsni tashkil etish husnixat oʻqitish metodikasida genetik metod deb aytiladi.

Oʻqituvchi birinchi navbatda har bir oʻquvchiga partada toʻgʻri oʻtirish qoidalarini erinmay tushuntirishi va mashq qildirishi darkor. Keyinchalik oʻquvchi ruchkani qanday ushlab, daftar tutish holati hamda harflarni yozayotganligini: sekin yoki tez yozishini kuzatib borishi lozim. Husnixat malakasini shakllantirishni faqat boshlangʻich sinfda emas, balki yuqori sinflarda ham takomillashtirib borish lozim.

Husnixat oʻqitish metodikasi fani bir qator boshqa fanlar bilan chambarchas bogʻliq. Estetika, fiziologiya, gigiyena, tilshunoslik kabi fanlar bilan aloqada boʻladi. Estetika fani

bilan bog‘liqlik jihati shundaki, eng avvalo o‘quvchilarda go‘zallikka bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. Chiroyli yozish ham go‘zallikning bir ko‘rinishidir. Sharq mutafakkirlaridan biri shunday degan ekanlar: «Chiroyli yozgan kishi chiroyli fikrlay oladi». Darhaqiqat, o‘quvchi maktabga kelgan kundan boshlab, orfografik hushyorlik malakalari haqida tanisha boshlaydi. Undan tashqari o‘quvchini chiroyli yozishga o‘rgatish jarayonida bolaning har tomonlama nerv sistemasi, qo‘l harakatlari va muskullari, ko‘rish hamda eshituv organlari, umurtqa pog‘onasi rivojlangan bo‘lishi kerak. O‘quvchi shundagina husnixat malakalarini o‘zlashtira oladi.

Agar o‘quvchining biz yuqorida tilga olgan organlaridan biri yaxshi taraqqiy etmagan bo‘lsa, u holda o‘quvchida orfografik hushyorlik malakalari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaydi.

O‘qituvchi orfografik malakaning psixologik tabiatidan kelib chiqib, kichik yoshdagi o‘quvchilarda imloga oid malakani shakllantirish ustida ishlash metodikasini belgilaydi.

Orfografik malaka maxsus nutq malakasidir. To‘g‘ri yozuv –maxsus nutq faoliyati; yozuvning har bir akti murakkab harakat bo‘lib, uning asosida nutq yotadi. Orfografik malaka nutq faoliyatining komponenti sifatida gapni sintaktik tomondan to‘g‘ri tuzish, so‘zni uslubiy aniq qo‘llashni ham o‘z ichiga oladi. Orfografik malaka murakkab malaka bo‘lib, uzoq davom etadigan mashqlar jarayonida yaratiladi va so‘zni fonetik tomondan tahlil qilish, uning morfemik tarkibini aniqlash ko‘nikmasi kabilarga asoslanadi.

Psixologiya malakani avtomatik harakat, ya‘ni mashqlar natijasida asta-sekin avtomatlashgan ongli harakat deb belgilaydi. Avtomatlashish o‘rganilgan orfografik qoidaning oson yoki qiyinligiga bog‘liq. Orfografik malaka o‘z tabiati bilan avtomatik hisoblanmaydi. Malaka asosiga qo‘yilgan ko‘nikma mustahkamlanadi, takomillashadi, yaxshilanadi (harakat tezlashadi, aniq-to‘g‘ri bo‘la boshlaydi, ishonarli va tejimli bajariladi); shuning bilan birga, faoliyatning strukturasi qayta quriladi: mayda birlik bilan ishlash kengroq, butun, qo‘shilgan birliklar bilan ishlashga o‘tadi (masalan, so‘zni harflab ko‘chirish, bo‘g‘inlab ko‘chirish bilan, keyin so‘zni yaxlit ko‘chirish bilan, so‘ngra u gapni ko‘chirish bilan almashadi.) bir imlo malakasi avtomatlashadi, imloga oid boshqa hodisa o‘rganiladi va asta-sekin so‘zni to‘g‘ri yozish malakasi hosil bo‘ladi. Umuman olganda, yozuv murakkab harakat sifatida ongli jarayonligicha qoladi.

To‘g‘ri yozuv malakasining shakllanishi uchun o‘quvchidan fikrlash faoliyati talab etiladi. Biror to‘g‘ri yozuv hodisasini o‘zlashtirish uchun o‘quv va yodda saqlashgina emas, balki analiz va sintez ham tadbiiq etiladi. Bunda grammatik va orfografik hodisalarning o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash uchun taqqoslash usulidan foydalanish hamda so‘z va so‘z shakllarini ma‘lum grammatik yoki grafik guruhlariga ajratish, muayyan sistemaga solish, tushuntirish va isbotlash mashqlaridan foydalanish muhim rol o‘ynaydi.

Shunday qilib, orfografiyani o‘rgatishda, grammatikani o‘rgatish kabi, o‘quvchilarning analitik-sintetik faoliyatini asta takomillashtira borish talab etiladi. O‘quvchilarda to‘g‘ri yozuv malakasini shakllantirish grammatik nazariyani va imlo qoidasini o‘zlashtirishga asoslanadi. Imlo qoidalari bir so‘znigina emas balki umumiylik mavjud bo‘lgan butun so‘zlar guruhining yozilishini tartibga soladi.

Bu xususiyati bilan u qoida xat yozuvchini har bir so‘zni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va qoidaga amal qilib, belgilangan qoidaga muvofiq, butun so‘zlar guruhini

yozish imkonini yaratadi. Imlo qoidasi grammatik umumiylik asosida birlashgan soʻzlarning yozilishini bir xillashtiradi. Bu yozma ravishdagi aloqani yengilashtiradi va imlo qoidalarining ijtimoiy ahamiyatini taʼkidlaydi. Imlo qoidalarini grammatik, fonetik, soʻz yasalishiga oid materiallarini maʼlum darajada bilmasdan turib oʻzlashtirish mumkin emas. Grammatik nazariya imlo qoidalari uchun poydevor hisoblanadi.

Shuning uchun boshlangʻich sinflarda imlo qoidasi shu qoidaga asos boʻladigan grammatik nazariyaga bogʻliq holda oʻrganiladi. Masalan, shakl yasovchi qoʻshimchalarning yozilishi haqidagi qoidalar “Ot”, “Sifat”, “Son”, “Kishilik olmoshlari”, “Feʼl” mavzulari ichiga kiritilgan. Materialning bunday joylashtirilishi grammatika va orfografiyani bir-biriga bogʻliq holda oʻrganishni taʼminlaydi. Imlo qoidasi bevosita grammatik nazariya elementlaridan soʻng oʻrganiladi.

Masalan, otlarning kelishiklar bilan turlanishi oʻrganilgach, kelishik qoʻshimchalarining yozilishi haqidagi koʻnikma shakllantiriladi.

“Sifat” mavzusini oʻrganish – roq, qoʻshimchasining va qip-qizil, yum-yumaloq kabi sifatning yozilishiga, “Feʼl” mavzusini oʻrganish boʻlishsizlik (-ma) va oʻtgan zamon (-di) qoʻshimchalarining yozilishiga zamin yaratadi. Imlo qoidalarini oʻrgatishga bunday yondashish boshlangʻich sinflarda barcha orfografik materiallarni oʻrganishda tipik hisoblanadi.

Imlo qoidalari ustida ishlash – murakkab jarayon, qoidaning mohiyatini ochish, oʻquvchilarning qoida ifodasini oʻrganib olishlari, qoidaning yozuv tajribasiga tatbiq etish uning asosiy komponentlari hisoblanadi.

Qoida mohiyatini ochish qoida soʻzning qaysi qismini, qaysi soʻz turkumi yoki grammatik shaklini yozishni boshqarishni, bunda qaysi belgilar yetakchi ekanini tushuntirish demakdir. Oʻquvchilarni qoida bilan tanishtirish uchun material tanlashda oʻqituvchi bu yetakchi belgilarni albatta hisobga oladi. Masalan, baland, Samarqand, poyezd; doʻst, past kabi soʻzlarda “d, t” undoshi talaffuzda tushib qolsa ham yozuvda doimo ifodalanadi. Bu qoidaning mohiyatini ochishda oʻquvchilar talaffuzda “d, t” undoshlari tushib qoladigan soʻz aytadilar, keyin oʻqituvchi rahbarligida shu soʻz bilan gap tuzadilar. Oʻqituvchi doskaga yozib boradi: farzand, band, artist, gʻisht, goʻsht. Xumoyun Samarqandda oʻqiydi. Doʻkonga mol va qoʻy goʻshti keldi.

Samarqand-Samarqandda, goʻsht-goʻshti soʻzlarini taqqoslaydilar; Samarqand, goʻsht – asos, -da va -i qoʻshimcha ekanini aytadilar. Oʻqituvchi oʻquvchilarga bu soʻzlarga qoʻshimcha qoʻshilganda, qanday talaffuz qilinishi haqida aytib beradi.

Qoida ifodasi ustida darslik boʻyicha ishlanadi. Bunda oʻquvchilarning qoida strukturasi anglab yetishlari ahamiyatlidir. Shuning uchun darslikdagi qoida qismlarga boʻlinadi. (Aslida oʻquvchilar bu vazifani mashq jarayonidayoq bajarib qoʻyadilar) Oʻquvchilar oʻrganilgan qoidaga misol aytish, gaplar tuzish va xilma-xil mashqlarni bajarish yoʻli bilan uni yangi til materialiga, yaʼni yozuv tajribasiga tatbiq etadilar.

Qoida ustida ishlash metodikasi shu qoidaning xarakteriga qarab tanlanadi. Masalan, boʻlishsizlik qoʻshimchasi (-ma)ning yozilishini deduktiv yoʻl bilan oʻrgatish mumkin. Joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi (-ga) ning oxiri -q bilan tugagan otlarga -qa, -k bilan tugagan otlarga -ka shaklida qoʻshilishi haqida induktiv yoʻl bilan tushuntirish maqsadga muvofiq.

O'quvchilar qoidadagi asosiy fikrni ajratishga yordam beradigan vazifalarni bajarsalar, uni o'zlashtirish xiyla qulay bo'ladi. Chunki bolalar aniq material bilan ishlaydilar va uni tahlil qilish vaqtida qoidaning muhim tomonlarini ajratadilar, qoidani ongli o'zlashtiradilar. Nimanidir, masalan, so'zlarning talaffuzi va yozilishini, so'z turkumlarini, so'z qismlarini bir-biriga taqqoslash o'quvchilarning aqliy aktivligini aniq yozib ko'rsatish ham ahamiyatli hisoblanadi. Qoidada aks ettirilgan muhim fikrni ajratishga o'qituvchining savollari yordam beradi. Bu savollar, o'z navbatida qoidani shakllantirish rejasi ham hisoblanadi.

XULOSA

O'quvchilarda chiroyli yozuv malakalarini hosil qilishda diqqat, sezgi, idrok etish, xotira kabi psixofiziologik funksiyalar ishtirok etadi. Yozish jarayoni ko'rish va eshitish sezgilari orqali idrok qilinadi. Demak, idrok etilishi lozim bo'lgan material tasvirini yaqqol ko'rsatish, bayonning ravshan va izchil bolishi, sinf doskasiga hamma o'quvchi ko'ra oladigan qilib chiroyli yozish idrok etishning muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlaydigan omillardandir. O'quvchilarda dastlabki yozuv malakalarini hosil qilishda ularning irodasini mustahkamlashga e'tibor berish lozim. O'qituvchi o'quvchilarni to'g'ri o'tirishga o'rgatishi, ularning erkin ishlashi uchun zarur shart-sharoit yaratib berishi kerak. Buning uchun o'quv yili boshida o'qituvchi maktab hamshirasi bilan hamkorlikda bolalarni yoshiga, bo'yiga hamda ko'rish va eshitish qobiliyatlariga qarab partalarga o'tqizishi lozim. O'quvchilar partasi sinfdagi asosiy jihoz bo'lib, u o'quvchilarning yoshlari va bo'ylariga mos, yozish va rasm chizish uchun qulay bo'lishi va o'quvchi o'tirib turganda xalaqit bermasligi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni// "Xalq so'zi", 2017-yil 8-aprel, №28 (6722).
2. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi. Ona tili. 1-11-sinf. Loyiha_2
3. Husanboyeva.Q, Hazratqulov.M. Sinfda o'qish metodikasi. SamDU, 2020, 156 b
4. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: "Talqin" nashriyoti, 2005. – 272 b.
5. Mirtojiev M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1-qism (kirish, fonetika, fonologiya, yozuv, imlo, orfoepiya, leksikologiya, leksikografiya). - Toshkent: Universitet, 2004. – 222 b.
6. Murodullayeva D., Abdusalomova D. O'quvchilarning imloviy savodxonligini oshirishda orfografiya va lug'atlardan foydalanishning o'rni va ahamiyati. "Tadqiqotlar" jahon ilmiy-metodik jurnali. 15-son, 5-qism, 2023-y.
7. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari. Toshkent.1995-yil 24-avgust
8. Ona tili o'qitish metodikasi. Karima Qosimova. Toshkent-2009
9. www.ziyonet.uz